



(dastlabki ma'lumotlar)

Sirdaryo viloyatida

kichik tadbirkorlik

2020 – yil yanvar – iyun



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **67,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **19,6** birlikni tashkil qildi.

2020 – yilning yanvar – iyunida **1783** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **116,9** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 713 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 414 ta, sanoatda 311 ta, qurilishda 112 ta, yashash va ovqatlanishda 82 ta, tashish va saqlashda 24 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Yanvar – iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	9626	12324	2698
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1524	1783	259
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	69,4	67,4	-2,0
Sanoat	%	39,3	34,7	-4,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,5	98,7	-0,8
Investitsiya	%	48,5	62,0	13,5
Qurilish	%	97,9	99,2	1,3
Savdo	%	95,9	94,3	-1,6
Xizmatlar	%	59,7	55,3	-4,4
Yuk tashish	%	95,7	95,7	0,0
Yuk aylanmasi	%	95,5	96,0	0,5
Yo'lovchi tashish	%	96,1	95,9	-0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,0	97,5	-0,5
Eksport	%	74,0	71,6	-2,4
Import	%	68,0	63,3	-4,7



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Guliston shahrida – 373 ta, Sirdaryo tumanida – 194 ta, Mirzaobod tumanida – 187 ta, Oqoltin tumanida – 142 ta, Boyovut tumanida – 171 ta va Sayxunobod tumanida – 156 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 51 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
Sirdaryo viloyati	1524	1783	259
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	387	373	-14
Shirin	26	51	25
Yangiyer	113	95	-18
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	85	179	94
Boyovut	130	171	41
Sayxunobod	113	156	43
Guliston	119	123	4
Sardoba	100	130	30
Mirzaobod	116	187	71
Sirdaryo	257	194	-63
Xovos	78	124	46



**2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shahri - 20,9 %, Sirdaryo tumani - 10,9 %, Mirzaobod tumani - 10,5 %, Oqoltin tumani - 10,0 %, Boyovut tumani - 9,6 %, Sayxunobod tumani 8,7 %, Sardoba tumani 7,3 %, Xovos tumani - 7,0 %, Guliston tumani - 6,9 %, Yangiyer shahri - 5,3 %, Shirin shahri - 2,9 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 - yil yanvar - iyun	2020 - yil yanvar - iyun	(+/-)
Jami	1524	1783	259
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	192	414	222
Sanoat	340	311	-29
Qurilish	186	112	-74
Savdo	519	713	194
Tashish va saqlash	23	24	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	162	82	-80
Axborot va aloqa	15	19	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	15	7
Boshqa faoliyat turlari	79	93	14

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar - iyun	2020 - yil yanvar - iyun	Farqi (+;-)
Guliston sh.	387	373	-14
Sirdaryo tumani	257	194	-63
Mirzaobod tumani	116	187	71
Oqoltin tumani	85	179	94
Boyovut tumani	130	171	41
Sayxunobod tumani	113	156	43

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida – 373 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda






Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman, shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 40,2 birlik, Sayxunobod tumanida 21,3 birlik, Yangiyer shahrida 20,9 birlik, Guliston tumanida 19,9 birlik, Oqoltin tumanida 19,7 birlik, Mirzaobod tumanida 19,6 birlik, Sirdaryo tumanida 17,7 birlikni tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 12,1 birlikka to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 40,2 birlik, Sayxunobod tumanida 21,3 birlik, Yangiyer shahrida 20,9 birlik, Guliston tumanida 19,9 birlik, Oqoltin tumanida 19,7 birlik, Mirzaobod tumanida 19,6 birlik, Sirdaryo tumanida esa 17,7 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich**
- Guliston shahri - 40,2 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
- Yangiyer shahri - 20,9 birlik;

- **Eng past ko'rsatkich**
- Boyovut tumani - 12,1 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Guliston shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Boyovut tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da


2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,4 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar – iyunida 69,4 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan, % da)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Sirdaryo viloyati	34,7	99,2	55,3	62,0
shaharlar:				
Guliston	77,8	97,6	27,0	62,6
Shirin	0,9	100,0	98,3	3,8
Yangiyer	59,0	100,0	98,2	95,9
tumanlar:				
Oqoltin	36,2	99,7	95,2	54,8
Boyovut	49,7	100,0	89,8	80,8
Sayxunobod	57,3	100,0	77,7	77,1
Guliston	47,6	100,0	97,1	95,7
Sardoba	74,1	99,9	92,7	94,0
Mirzaobod	57,8	99,8	93,7	81,1
Sirdaryo	61,4	99,9	96,3	73,8
Xovos	70,7	99,8	96,9	81,9

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Guliston sh. (77,8 %),
Sardoba (74,1 %),
Xovos (70,7 %) va
Sirdaryo (61,4 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Yangiyer sh. (100,0 %),
Shirin sh. (100,0 %),
Sayxunobod (100,0 %),
Boyovut (100,0 %)
va Guliston (100,0 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Shirin sh. (98,3 %),
Yangiyer sh. (98,2 %),
Guliston (97,1 %),
Xovos (96,9 %)
Sirdaryo (96,3 %) va
Oqoltin (95,2 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - iyunida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagи ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Shirin shahrida - 100,0 %, Oqoltin tumanida - 100,0 %, Sayxunobod tumanida - 100,0 %, Xovos tumanida - 100,0 %, Guliston tumani - 99,9 %, Yangiyer shahrida - 99,9 %, Sardoba tumanida - 99,7 %, Sirdaryo tumanida - 66,7 %, Guliston shahrida - 57,0 %, Boyovut tumanida - 50,3 % ni, eng past ko'rsatkich Mirzaobod tumanida - 35,2 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xovos tumanida – 100,0 %, Yangiyer shahrida – 100,0 %, Oqoltin tumanida – 100,0 %, Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Guliston tumanida – 99,7 %, Sardoba tumanida – 98,9 %, Guliston shahrida – 93,7 %, Mirzaobod tumanida – 66,5 %, Boyovut tumanida – 50,5 %, Sirdaryo tumanida – 48,9 %. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 9,7 % ni tashkil etdi.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (361,9 mlrd. so'm), Guliston shahrida (285,3 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (140,3 mlrd. so'm), Mirzaobod tumanida (105,7 mlrd. so'm), Boyovut tumanida (89,9 mlrd. so'm), Xovos tumanida (64,2 mlrd. so'm), Sayxunobod tumanida (58,7 mlrd. so'm) va Sardoba (47,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (13,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko’ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Guliston shahri (77,8 %), Sardoba tumani (74,1 %), Xovos tumani (70,7 %), Sirdaryo tumani (61,4 %), Yangiyer shahri (59,0 %), Mirzaobod tumani (57,8 %), Sayxunobod tumani (57,3 %), Boyovut tumani (49,7 %), Guliston (47,6 %) va Oqoltin (36,2 %) tumanlari tashkil etdi. Shirin shahrida (0,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri 434,4 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o’sish sur’ati 105,6 %), Sirdaryo tumani 389,9 mlrd. so’m (108,0 %), Mirzaobod tumani 133,2 mlrd. so’m (106,3 %), Yangiyer shahrida 119,4 mlrd. so’m (104,9 %), Sardoba 112,0 mlrd. so’m (87,5 %) va Sayxunobod 92,4 mlrd. so’m (102,2 %) tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri 285,6 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 94,2 %), Sirdaryo tumani 97,8 mlrd. so'm (76,5 %), Yangiyer shahri 94,6 mlrd. so'm (96,7 %), Boyovut tumani 87,2 mlrd. so'm (95,1 %), Mirzaobod tumani 82,4 mlrd. so'm (95,6 %) hamda Oqoltin tumanida 80,0 mlrd. so'm (96,3 %) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Guliston shahri 226,8 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o’sish sur’ati 95,5 %), Sirdaryo tumani 146,0 mlrd. so’m (97,4 %), Yangiyer shahri 91,0 mlrd. so’m (98,4 %), Mirzaobod tumani 62,3 mlrd. so’m (98,8 %), Xovos tumani 49,9 mlrd. so’m (98,7 %) hissasiga to’g’ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **432** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 8,7 % (38 ta), sanoatda – 12,3 % (53 ta), qurilishda – 17,8 % (77 ta), savdoda – 35,0 % (151 ta), xizmatlar sohasida – 26,2 % (113 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat savdoda 25,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,8 punktga, xizmatlar sohasida 13,1 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qurilish va sanoat korxonalaridan tashqari qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 19,1 punktga, qurilish korxonalarida 18,1 punktga, savdoda 4,3 punktga, sanoat sohasida 4,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi sanoat sohasida 10,1 punktga, ximatlar sohasida 10,1 punktga, savdoda 3,3 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, savdoda 1,4 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 13,2 punktga, qurilishda 10,4 punktga, ximatlar sohasida 11,7 punktga, savdoda 1,9 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 – yilning II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 109 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 15 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 13,8 % i), qurilish – 6 ta (5,5 % i), savdo – 52 ta (47,7 % i), xizmatlar – 14 ta (12,8 % i), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 22 ta (20,2 % i).


2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qurilish korxonalaridan tashqari qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan qurilish korxonalarida 44,5 punktga, sanoat sohasida 14,5 punktga, savdoda 10,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 21,2 punktga, xizmatlar sohasida 14,4 punktga, savdoda 13,2 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni qurilish va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalaridan tashqari yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 40,5 punktga, xizmatlar sohasida 7,1 punktga, savdoda 3,1 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda 11,5 punktga, sanoat sohasida 6,6 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 4,5 punktga ko'paydi.

